

XORIJIY MAMLAKATLARDA XAVFNI BOSHQARISH TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Farxodov Farrux Furqatovich

Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to'lovlari kafedrasi o'qituvchisi.

Email: farrux.farxodov@gmail.com, ORCID: 0009-0004-2041-3504

Sherboboyev Damir O'ktam o'g'li

Bojxona instituti 4-kurs kursanti.

Email: sherboboyevdamir2@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8430-4313

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimining tajribasi o'rganilib, O'zbekiston respublikasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish yuzasidan takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xavf, xavfni boshqarish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, xavfni boshqarish tizimi, bojxona, xavflarni aniqlash, bojxona nazorati.

ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Фарходов Фаррух фуркатович, преподаватель кафедры таможенного регулирования и таможенных платежей Таможенного института.

email: farrux.farxodov@gmail.com, ORCID: 0009-0004-2041-3504

Шербобоев Дамир Уктамович, курсант 4 курса Таможенного института.

email: sherboboyevdamir2@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8430-4313

Аннотация: В данной статье даны этапы внедрения системы управления рисками в таможенных органах Республики Узбекистан, правовые основы и предложения по развитию системы управления рисками на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: риск, управление рисками, участники внешнеэкономической деятельности, система управления рисками, таможня, выявление рисков, таможенный контроль

EXPERIENCE IN RISK MANAGEMENT AND OPPORTUNITIES FOR THEIR USE IN FOREIGN COUNTRIES

Farkhadov Farrukh Furkatovich, teacher at the department of Customs regulation and customs payments of the Customs Institute email:

farrux.farxodov@gmail.com, ORCID: 0009-0004-2041-3504

Sherboboev Damir Uktamovich, 4th year cadet of the Customs Institute email:

sherboboyevdamir2@gmail.com, ORCID: 0009-0001-8430-4313

Annotation: This article describes the stages of implementing a risk management system in the customs authorities of the Republic of Uzbekistan, the legal framework and proposals for the development of a risk management system based on foreign

experience.

Keywords: risk, risk management, participants in foreign economic activity, risk management system, customs, risk identification, customs control.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda tashqi savdo hajmining ortishi sharoitda bojxona organlarining samaradorligini ta'minlagan holda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bojxona tartibotlarini soddalashtirishning asosiy instrumentlaridan biri bu xavfni boshqarish tizimidir.

Shuningdek bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi halqaro kioto konvensiyasining[1] 6.3 – standartida bojxona nazoratini o'tkazishda bojxona xizmati xavfni boshqarish tizimidan foydalanishi ko'rsatib o'tilgan. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning talablaridan biri bu savdo protseduralarini soddalashtirish to'g'risidagi bitimning[2] talablarini bajarishdir. Mazkur bitimning 5- moddasida mamlakatlar bojxona nazorati paytida xavflarni boshqarish tizimidan foydalanish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etishlari, insofli tadbirkorlarni rag'batlantirish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda "Bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-son Farmoni[3] bilan xavfni boshqarish tizimi joriy etildi. Xavfni boshqarish tizimi bosqichma bosqich chegara bojxona postlarida ham amaliyotga tatbiq etildi jumladan, 2020-yil avtomobil chegara bojxona postlarida, 2021-yildan avia va temir yo'l chegara bojxona postlarida joriy etildi.

Xavfni boshqarish tizimidan foydalanish ko'lamining kengayishi savdoni yengillashtirishga qaratilgan mavjud talablarni optimallashtirishga, savdo hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilib, samarali nazorat va savdoni yengillashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu munosabat bilan xorijiy mamlakatlarda xavfni boshqarish tizimining tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona organlarida xavflarni boshqarish mohiyati va ahamiyati, xavflarni boshqarishning zamonaviy usullari, xavflarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari, xavflarni boshqarish jarayonlarining matematik modellari va bojxona axborotining ko'p o'lchovli tahliliga asoslangan bojxona xavflarini klassifikatsiyalash va baholash algoritmlari mamlakatimizning qator olimlari, jumladan A.Saidov, M.M.Xamrayev, A.O.Nazarov, X.B.Ro'zimetov, Sh.Sh.Shoha'zamiy, L.T.Pulatova, D.N.Sharipovalar tadqiqotlar olib borib, o'zlarining ilmiy izlanishlari va adabiyotlarida uchraydi¹.

¹ Saidov A.A. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish usullari. // Texn.fan.dokt. diss. avtoref. – T.: 2015. – 43 b.; Xamrayev M., Ruzmetov X.,

Xususan M.M.Xamrayev, A.O.Nazarov va X.B.Ro‘zimetovlar “Xavfni boshqarish tizimi” darsligida bojxona nazoratini amalga oshirishning shakl va usullarini tanlab o‘tkazish, xavf darajasi past bo‘lgan halol tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qulay sharoitlar yaratish, bojxona rasmiylashtiruv uchun sarf bo‘ladigan vaqt va xarajatlarni keskin qisqartirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan “Xavfni boshqarish” tizimini qo‘llash bojxona nazoratining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib qolishini aytib o‘tishgan[4], shuningdek, iqtisodiy tahlil va statistik usullar, ayniqsa sabablilikni aniqlashga oid metodologiyalar bo‘yicha professor Joshua Angrist samarali va asosli qarorlar qabul qilishda sifatli ma‘lumotlar va ishonchli tahlil usullari zarurligini ta‘kidlaydi[5]. Bu xavflarni boshqarish va siyosiy qarorlar qabul qilishda ham muhim. Thomas Cantens – Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) doirasida olib borgan tadqiqotlarida xavfni bojxona nazorati jarayonidagi noma‘lum yoki nazorat qilinmagan tahdidlar sifatida belgilaydi. U xavfni boshqarishda big data va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini aytadi[6]. Uning tadqiqotlari bojxona xavflarini prognoz qilish va profiling orqali kamaytirish masalalariga bag‘ishlangan.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, xavfni boshqarish tizimini qo‘llashning imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy nashrlar hamda xorijiy tajribalar asosida empirik, analiz va sintez tahlil usullari asosida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda joriy qilish imkoniyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida nazariy yondashuvlar, xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar bilan solishtirma tahlil, statistik ma‘lumotlarni modellashtirish va prognozlash kabi zamonaviy usullardan keng foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali milliy bojxona tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJA VA TAHLIL

Bojxona sohasida yuqori samaradorlikka erishgan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ushbu davlatlarda axborot almashinuv tizimlari keng joriy etilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. AQSH tajribasida ko‘radigan bo‘lsak, bugungi kunda barcha jarayonlar to‘liq elektron ma‘lumot almashish asosida qurilgan bo‘lib, barcha yirik portlarda xavfni boshqarish tizimi asosida tanlab olish va xavflarni analiz qilish orqali bojxona nazorati amalga oshiriladi. Kirib keladigan yuklarning qariyb 98 foizi bojxona ko‘rigisiz dasturning mantiqiy nazorati ostida realizatsiyaga ruxsat beriladi. Qolgan qismi esa bojxona ko‘rigidan o‘tkaziladi. O‘tkaziladigan bojxona ko‘riklari esa 90-95 hollarda o‘z natijasini beradi.

AQShda bojxona xizmati AQSh Bojxona va chegara nazorati xizmati deb ataladi. AQShda xavflarni boshqarish bilan AQSH Bojxona va chegara nazorati xizmati qoshidagi milliy targetlash markazi (MTM) shug‘ullanadi. Milliy targetlash markazi AQSH xavfsizligini ta‘minlash tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanib u xavo harakati

Nazarov A. Xavfni boshqarish tizimi. // Darslik. – T.: 2020. – 260 b.; Shoha‘zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. //Darslik. –T.: 2007. — 281 b.; Pulatova L.T., Saidov A.A. Проблемные вопросы внедрения системы управления рисками при фитосанитарном и ветеринарном контроле в пунктах пропуска через таможенную границу Республики Узбекистан; Шарипова Д.Н. Риск-менеджмент в системе управления персоналом таможенных органов. – 2016 у.

va savdo faoliyatini monitoring qilish, shuningdek, razvedka ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Markaz 4 ta bo'linmalardan tashkil topgan:

1. Yuk (NTC-Cargo);
2. Yo'lovchi (NTC-Passenger);
3. Tarmoq (Counter-Network);
4. Tezkor surishtiruv (NTC-Investigations).

Milliy targetlash markazi operativ tuzilma maqomida 24/7 ish tartibida faoliyat yuritadi. Milliy targetlash markazi ma'lumot to'plash uchun foydalanadigan yuqori texnologiyali vosita Avtomatlashtirilgan targetlash tizimidir. Barchamizga ma'lumki xavfni boshqarishning asosida ma'lumotlar tahlili yotadi va tahlilni amalga oshiruvchi xodimlar va dasturlar uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi talab etiladi. Amerika milliy targetlash markazining eng katta yutuqlaridan biri bu, juda ko'p xalqaro tizimlardan ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda, avtomatlashtirilgan targetlash tizimi – quyidagi xalqaro tizimlardan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qabul qiladi:

- xalqaro reyslar uchun yo'lovchi raqamlari yozuvlari (PNR);
- havo, dengiz yoki quruqlik orqali xalqaro sayohatlar uchun (API);
- xavfsiz parvoz yo'lovchi ma'lumotlari (SFPD);
- oldindan yo'lovchi ma'lumot tizimi (APIS);
- sayohatga ruxsat berish uchun elektron tizim (ESTA);
- immigratsiya va bojxona nazorati (ICE);
- elektron aniqlashtirish (EID);
- texnik yaxshilanishlar va bojxona qo'llab quvvatlashi (TECS);
- insertable cardiac monitor (ICM);
- milliy Huquqni Muhofaza Qilish Telekommunikatsiya Tizimi (Nlets);
- milliy jinoyatchilik axborot markazi (NCIC);
- zaryadlangan qurilma (turli xil qurilmalarda, shu jumladan raqamli kameralarda ishlatiladigan elektron yorug'lik sensori, CCD).

AQSHning bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan xavfni boshqarishni qo'llashga mo'ljallangan quyidagi turli dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan:

- terrorizmga qarshi kurashish yuzasidan savdo jamiyati bilan hamkorlik dasturi (S-TRAT);
- konteynerda tashish xavfsizligi dasturi;
- 24 soat qoidasi;
- SENTRI (the Secure Electronic Network for Travelers Rapid Inspection – Safarlarni tezkor tekshirish uchun xavfsiz elektron tarmoq) dasturi.

SENTRI dasturi jismoniy shaxs haqidagi ma'lumotlar oldindan taqdim etilishini va ushbu ma'lumotlar bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan tekshirilishini nazarda tutadi. So'ngra beriladigan ro'yxatga olish kartachasidan yuz tuzilishini tezlashtirilgan holda identifikatsiya qilish uchun foydalaniladi.

Xitoy Xalq Respublikasining bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini amalga oshirishda ilg'or yondashuvlari va texnologiyalaridan foydalanadi. Ularning xavfni boshqarish tizimi asosiy maqsadi bojxona nazoratining samaradorligini oshirish va

qonunbuzarliklarning oldini olish bilan birga savdo oqimlariga ortiqcha to'loqlarni kamaytirishdan iborat.

Xitoy bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini amalga oshirishda quyidagi dasturlardan foydalanadi:

Nuctech Cargo Scanning Systems - Yuklarni rentgen va skaner orqali avtomatlashtirilgan tahlil qilish uchun ishlatiladi.

RFID va GPS Kuzatuv Texnologiyalari - Xitoy bojxonasi tovarlarni tranzit davomida kuzatish uchun RFID va GPS tizimlaridan foydalanadi. Bu texnologiyalar real vaqtda harakatlanuvchi yuklar xavfini baholashga yordam beradi.

RFID dasturlari - yuklarni avtomatik identifikatsiyalash.

GPS platformalari - yuk va konteynerlarning harakatini nazorat qilish uchun.

Ant Blockchain Platform - Savdo va bojxona ma'lumotlarini blokcheyn asosida boshqarish.

China Customs Risk Management System (CCRM) - xavfni aniqlash va boshqarish uchun maxsus ishlab chiqilgan tizim.

Nuctech Cargo Scanning Systems — Xitoyda ishlab chiqilgan, yuqori texnologiyali yuklarni tekshirish va xavfni aniqlash uchun mo'ljallangan skanerlash tizimi. Ushbu tizim *Nuctech Company Limited* tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo bo'ylab bojxona, port, aeroport va xavfsizlik organlari tomonidan keng qo'llaniladi.

Nuctech texnologiyasi yuklarning ichki tarkibini batafsil tasvirlash uchun rentgen texnologiyasidan foydalanadi, raqamli va yuqori aniqlikdagi tasvirlarni yaratish qobiliyatiga ega. Skanerlash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyasi shubhali obyektlarni avtomatik ravishda aniqlaydi va tasniflaydi. Avtomatik tahlil qilish orqali odam omilidan kelib chiqadigan xatolarni minimallashtiradi.

Janubiy Koreya bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimi zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarga asoslangan bo'lib, ularning maqsadi bojxona nazorati samaradorligini oshirish va qonunbuzarliklarning oldini olish bilan birga savdo oqimini tezlashtirishdan iborat. Ular xavfni boshqarish tizimida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va big data tahliliga katta ahamiyat beradi.

Janubiy Koreya bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini avtomatlashtirilgan tarzda ishlaydi. Ushbu tizim quyidagi asosiy elementlarga ega:

Korea Customs Service (KCS) - Bojxona xizmatining barcha operatsiyalarini boshqaruvchi va xavfni boshqarishning asosiy jarayonlarini nazorat qiluvchi tashkilot.

Xavfni avtomatik baholash tizimi (C-Trade System) - Koreyaning bojxona tizimida xavfni boshqarish C-Trade (Customs Trade Partnership System) orqali amalga oshiriladi. Bu tizim bojxona va biznes o'rtasida shaffoflikni ta'minlaydi va xavfni avtomatik baholaydi.

Xavf profillarini aniqlash – u real vaqt rejimida yuk, tovar, eksport-impoter kompaniyalar va transport vositalariga oid xavf omillarini tahlil qiladi. Bojxona deklaratsiyalari avtomatik ravishda xavf kategoriyalariga ajratiladi.

Avtomatlashtirilgan bojxona tizimi (UNI-PASS) - UNI-PASS Koreyaning bojxona operatsiyalarini to'liq raqamlashtiruvchi tizimidir. Bu tizim orqali barcha bojxona jarayonlari, jumladan xavfni baholash, onlayn amalga oshiriladi.

UNI-PASS bir vaqtning o'zida xavfni boshqarish va qonunbuzarliklarni kamaytirishga yordam beradi. Bojxona nazorati, ma'lumotlar almashinuvi va xavfni

boshqarish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirishga imkon beradi. Tizim AI (sun'iy intellekt) va Big Data (katta hajmdagi ma'lumotlar) yordamida xavf omillarini avtomatik ravishda tahlil qiladi. UNI-PASS tizimi bojxona operatsiyalarini modernizatsiya qilish va xavfni samarali boshqarish uchun ideal yechimdir. Bu tizim nafaqat Koreya, balki boshqa davlatlar uchun ham namunali tajriba bo'lib, savdo va bojxona jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xavfni boshqarish tizimining joriy etilishi mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va insofli tadbirkorlarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining faoliyatini yaxshilaydi va bojxona qonunchiligiga rioya qilishni oshiradi. Bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shuning uchun, bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratishi lozim. Bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda rivojlantirish zarurati paydo bo'lmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

- chegara bojxona postlari orqali harakat qilayotgan jismoniy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni oldindan taqdim etish tizimini joriy etish;

- aeroport chegara bojxona postlarida taqdim etilgan ma'lumotlarni APR va PNR tizimlarida avtomatik ravishda tahlil qilish uchun mantiqiy nazorat o'rnatish;

- big data (katta hajmdagi ma'lumotlar) yordamida xavf omillarini avtomatik ravishda tahlil qilish uchun Koreyaning UNI-PASS tizimiga o'xshash yagona dastur yaratish;

- xavfni boshqarish tizimida mavjud va kelib tushadigan ma'lumotlar asosida o'zini o'zi avtomatik yangilab boradigan sun'iy intellekt elementini joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo hajmi yildan yilga oshib borayotgan bir paytda, bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalari harakatini tezkor tartibga solishning optimal usuli xavfni boshqarish tizimi hisoblanadi. Ushbu tizimni yanada takomillashtirish yo'nalishida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin xavfni boshqarish tizimi tadbirkorlik subyektlariga yengilliklar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro KIOTO konvensiyasi. – Kioto, 1973-y.
2. Savdo protseduralarini soddalashtirish to'g'risidagi bitim. – Jeneva, 2014-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda "Bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-son Farmoni.
4. Xamraev M., Ruzmetov X., Nazarov A. Xavfni boshqarish tizimi. // Darslik. Bojxona instituti, 2021. – 263 b.
5. World customs journal, article, Kunio Mikuriya and Thomas Cantens.
6. Global Trade and Customs Journal, article, Margarita Tisliakova.
7. Nazarov A.O. "Chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirish istiqbollari" PhD diss. avtoref., T:2023.. 56 b.

8. Ro‘zimetov X.B. “Bojxona tizimida xavflarni baholash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish” PhD diss. avtoref., T:2024., 60 b.
9. Saidov A.A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish usullari. // Texn.fan.dokt. diss. avtoref. – T.: 2015. – 43 b.
10. Shoha’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. //Darslik. -T.: 2007. - 281 b.
11. Pulatova L.T., Saidov A.A. Проблемные вопросы внедрения системы управления рисками при фитосанитарном и ветеринарном контроле в пунктах пропуска через таможенную границу Республики Узбекистан.
12. Sharipova D.N. “Риск-менеджмент в системе управления персоналом таможенных органов.” – 2016 у.